| | |
|---|---|
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>J.Yakubov - O'zDJTU, Fransuz tili nazariy fanlar kafedrasi professori, f.f.d. prof.<br>D.Djafarova - O'zMU, Fransuz filologiyasi kafedrasi mudiri, f.f.d., professor. |

Roman-german filologiyasi fakulteti dekani ______ X.Xakimov

Fransuz tili amaliy fanlar kafedrasi mudiri ______ P.Nishonov

Universitet axborot resurs markazi direktori ______ S.Kayumova



12 list

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**

Rektor ______ I.Tuxtasinov

2025-yil "___" ______

Ro'yhatga olindi: *BD60230100-CHAKT2404*

2025-yil "___" ______

# CHET TILINI O'QITISHDA AKT FANINING O'QUV DASTURI

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 | – | San'at va gumanitar fanlar |
| **Ta'lim sohasi:** | 230 000 | – | Tillar |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 60230100 | – | Filologiya va tillarni o'qitish (fransuz tili) |

**Toshkent – 2025**

| Fan/modul kodi<br>CHAKT2404 | | O'quv yili<br>2025-2026 | Semestr<br>4 | Kreditlar<br>4 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Tanlov | | Ta'lim tili<br>o'zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari<br>4 | |
| 1. | Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Chet tillarini o'qitishda AKT | | 48 | 72 | 120 |
| 2. | **I. Fanning mazmuni:**<br>**Fanni o'qitishdan maqsad** - talabalarga chet tillarini o'rganishda axborot-kommunikasion texnologiyalarning roli, zamonaviy axborottexnologiyalarining chet tili ta'limi jarayonida qo'llanish usullari va ularning bu sohada ko'mak beruvchi imkoniyatlarini tushuntirish va ularni amalda tatbiq etish ko'nikmalarini hosil qilishning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganish.<br>**Fanning vazifasi** - talabalarni nazariy bilimlar, til o'rganish samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish asoslari, o'quv audio va video materiallarini yaratish va ishlov berish vositalari, ta'limda WEB-texnologiyalar usul va vositalaridan foydalanish, On-Line o'quv kurslarni ishlab chiqishning zamonaviy vositalaridan foydalanish, o'qitishni boshqarish tizimlari bilan ishlash, til kompetensiyasini rivojlantirishda AKTning o'rni va mohiyati, o'zlashtirishni nazorat qilishda AKTni qo'llash usul va vositalari, audio va video materiallar bilan ishlash, turli dasturlar asosida til o'rganish, masofaviy, virtual, yuzma-yuz va masofaviy ta'lim integratsiyasi, tilga oid ma'lumotlarin Internet tarmog'idan izlash texnikalari, onlayn va oflayn til o'rganish manbalari, mobil va planshet dasturlar orqali til o'rganish bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatish.<br>**Xorij tajribasiga muvofiqligi**<br>Mazkur fan dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-martdagi "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 87-sonli buyrug'iga muvofiq, xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi 300 talik ro'yxatga kiruvchi **Sorbonne Université** ta'lim dasturi tajribasini o'rgangan holda tuzildi.<br>https://lettres.sorbonne-universite.fr/les-bibliotheques-de-lettres | | | | | |



| | |
|---|---|
| | qo'yadi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritishda ma'lum ilmiy-nazariy xatolarga yo'l qo'yadi, tayanch tushncha va terminlarning mohiyatini to'liq izohlay olmaydi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga qisman javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan yetarli bilimga ega bo'lmaydi. Talaba fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash, mavzuga oid masalalar yuzasidan qaror qabul qila olish ko'nikmasi to'liq shakllanmagan bo'ladi.<br>**2 (qoniqarsiz) baho** – talaba modul bo'yicha yetarli bilimga ega emas, juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi, savollarga qiyinchilik bilan javob beradi, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar:**<br>1. G.S.Turdieva, B.S.Qurbonov, G.Y. Bo'Ronova. Ta'limda axborot texnologiyalari, "Durdona" nashriyoti Buxoro – 2021.<br><br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Elisabeth Louveau, François Mangenot. Internet et la classe de langue. CLE INTERNATIONAL, PARIS 2006.ISBN-13: 978-2090330694.<br>2. Crinon, J. et Gautellier, C. Apprendre avec le multimédia et Internet, Retz, Paris, 2001.<br>**Axborot manbalari**<br>1. http://www.educnet.education.fr/<br>2. http://apprendre.tv5monde.com/<br>3. http://enseigner.tv5monde.com/<br>4. http://lewebpedagogique.com/ressources-fle/<br>5. https://lettres.sorbonne-universite.fr/les-bibliotheques-de-lettres<br>6. http://www.franceinfo.com/<br>7. www.cle-inter.com<br>8. www.pedagonet.com<br>9. www.granddictionnaire.com<br>10. www.portail.lettres.net |
| 7. | O'quv dasturi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Dastur universitet Kengashining 2025-yil ___ - __________dagi yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya etilgan (___ -sonli bayonnoma). |
| 8. | **Fan/Modul uchun mas'ullar :**<br>P.Nishonov - O'zDJTU, Fransuz tili amaliy fanlar kafedrasi mudiri, f.f.n.,dots<br>F.Badalov – O'zDJTU, Fransuz tili amaliy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi. |

| | |
|---|---|
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruh, mikroguruh bo'lib ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi tog'risida Nizom"ga ko'ra fanga ajratilgan kredit beriladi.<br>Talabalarning bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" talablari asosida belgilanadi.<br>**Talabalarning bilimini baholash mezonlari:**<br>**5 (a'lo) baho** – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi, masalaga oid daliliy misollarni tanlay oladi va ularni to'g'ri tahlil etish asosida ma'lum ilmiy xulosalar chiqara biladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'g'ri izohlay oladi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to'g'ri javob bera oladi, berilgan vazifa yuzasidan keng amaliy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, mavzuga oid masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qila oladi.<br>**4 (yaxshi) baho** – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, ammo ishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yadi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, masalaga oid daliliy misollarni tahlil etish asosida ma'lum ilmiy-nazariy xulosalar chiqara oladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini izohlashda ba'zi ikkilanishlarga, kamchiliklarga yo'l qo'yadi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to'g'ri javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan muyyan amaliy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, biroq mavzuga oid masalalar yuzasidan yetarli qaror qabul qila olmaydi.<br>**3 (qoniqarli) baho** – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajarish jarayonida jiddiy kamchiliklarga yo'l |



| | |
|---|---|
| | **II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlar)**<br>**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**<br>**Thème 1.** Kirish. Kursning maqsad va vazifalari (2 heures)<br>**Thème 2.** Til o'rganish samaradorligini oshirish usullari. (2 heures)<br>**Thème 3.** Til o'rganish samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish (2 heures)<br>**Thème 4.** Til o'rganish sohasida turli xil hujjatlar (2 heures)<br>**Thème 5.** Til o'rganish sohasida turli xil hujjatlar tayyorlash vositalari (2 heures)<br>**Thème 6.** Taqdimot yaratish (2 heures)<br>**Thème 7.** Taqdimot yaratishning zamonaviy vositalari (2 heures)<br>**Thème 8.** Grafik axborotlarga ishlov berish (2 heures)<br>**Thème 9.** Grafik axborotlarga ishlov berishning zamonaviy vositalari (2 heures)<br>**Thème 10.**. O'quv animasion lavhalar (2 heures)<br>**Thème 11.** O'quv animasion lavha (rolik) larni tayyorlash (2 heures)<br>**Thème 12.** O'quv animasion lavha (rolik) larni tayyorlashning zamonaviy vositalari (2 heures)<br>**Thème 13.** O'quv audio materiallar (2 heures)<br>**Thème 14.** O'quv audio materiallar zamonaviy vositalari (2 heures)<br>**Thème 15.** O'quv audio materiallarni yaratish va ishlov berish (2 heures)<br>**Thème 16.** O'quv video materiallar (2 heures)<br>**Thème 17.** O'quv video materiallar zamonaviy vositalari (2 heures)<br>**Thème 18.** O'quv video materiallarni yaratish va ishlov berish (2 heures)<br>**Thème 19.** Til o'rganishda Internet tarmog'i xizmatlari (2 heures)<br>**Thème 20.** Til o'rgatishda Internet tarmog'i xizmatlari (2 heures)<br>**Thème 21.** Axborot xavfsizligini ta'minlashning usul va vositalari (2 heures)<br>**Thème 22.** Elektron o'quv kurslarini yaratish vositalari (2 heures)<br>**Thème 23.** LMS maqsad va tuzilmasi (2 heures)<br>**Thème 24.** Takrorlash (2 heures)<br>**III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:**<br>Amaliy mashg'ulotlar multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mashg'ulot jarayonida mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.<br>**IV. Mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar va tavsiya etilgan mavzular:** |

Talabalarni mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i asosida ishlab chiqilgan.

Mustaqil ta'limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMIS axborot tizimida ilova qilish, shuningdek, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida oshiriladi.

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilganl vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

**Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:**

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot tayyorlash;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash.

**Mustaqil ta'lim uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**
**4-semestr**

1. Kompyuter, noutbuk, netbuk va planshetlar bilan ishlash bo'yicha prezentatsiya yaratish. (4 heures)
2. Adabiyotlardan foydalanib mavzuni to'ldirish. Tayanch iboralar bilan ishlash. (4 heures)
3. Smart-o'qitish muhiti elementlari bilan ishlash. (4 heures)



4. Stasionar va mobil operasion tizim turlari. (4 heures)
5. Grafik ob'yektlar bilan ishlovchi dasturlar. (4 heures)
6. Operasion tizimlarning qo'shimcha ilovalari. (4 heures)
7. Hujjatlar bilan ishlashning turli dasturiy muhitlari. (4 heures)
8. Hujjat yaratishda grafik ob'yektlar bilan ishlash. (4 heures)
9. Elektron hujjat yaratish usul va vositalari. (4 heures)
10. Formula va funksiyalar bilan ishlash. (4 heures)
11. Grafik ob'yektlar bilan ishlashning mobil ilovalari. (4 heures)
12. Taqdimotlar yaratish usul va vositalari. (4 heures)
13. Animasion lavhalar yaratish. (4 heures)
14. Ovoz va video lavhalarga ishlov berish. (4 heures)
15. Turli global axborot resurslari bilan ishlash. (4 heures)
16. Tilga oid resruslar bilan ishlash. (4 heures)
17. Elektron portfoliolar. (4 heures)
18. Til o'rganishga bog'liq turli muhitli dasturiy ilovalar bilan ishlash. (4 heures).

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar o'quv dasturida tavsiya etilgan qo'shimcha adabiyotlarni o'qish, o'zlashtirish, ularni tahlil qilish, berilgan mavzular bo'yicha portfolio tayyorlash va ularni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3. **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**

- til o'rganish samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana bilishi;
- til o'qitishning zamonaviy, ilg'or metodlari haqida batafsil ma'lumotni egallashi hamda amalda ulardan foydalana olishi;
- til o'rganish jarayonida turli axborotlarni izlab topish va ularga ishlov berishning zamonaviy vositalaridan foydalanishi;
- ta'limda WEB-texnologiyalar usul va vositalaridan foydalanishni bilishi;
- on-line o'quv kurslarida ishtirok etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- onlayn efirda o'rganilayotgan chet tilida bahs-munozaralarda qatnashish va forumlarda muhokamalarni tashkil etish;
- ochiq ta'lim manbalari, masofaviy, virtual, yuzma-yuz va masofaviy ta'lim turlarida qatnashishi;
- til o'rganishga oid ma'lumotlarni Internet tarmog'idan izlab topish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.